# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / SENTABR / 9-SON, II-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 14
Alovuddin Jamolov
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR ........ 19
Quliyev Begimqul Melikovich
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 25
Uzakova Kamola Bexzodovna
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI ........ 31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024) ........ 36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li
Rajabova Malika
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI ........ 44
Rustamova Dildora Jamshid qizi
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION ........ 50
Wang Jiahao
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA ........ 63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ........ 69
Баймуратова Зина Акилбековна
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI ........ 75
Niyozov Asad Qosimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO‘NALISHLARI

**Niyozov Asad Qosimovich**
**Osiyo xalqaro universiteti**
**“Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi**
**E-mail: asadniyozov19877@gmail.com**

**Annotatsiya.** Inflyatsiyani boshqarish usullari hamda investitsiyaviy muhit tushunchalariga nazariy yondashilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O‘zbekistonda investitsiyaviy muhitni yanada rivojlantirish va inflyatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish yo‘nalishlari yoritilgan. Inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, pul massasi, valyuta kursi va investitsiya oqimlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinib, inflyatsiyaning investitsiyaviy muhitga ta’sir yo‘nalishlari aniqlangan. Xorijiy tajriba asosida inflyatsion targetlash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va investorlar ishonchini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston sharoitiga mos takomillashtirish yo‘llari keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:** inflyatsiya, inflyatsion targetlash, investitsiyaviy muhit, investitsiya oqimlari, foiz stavkalari, pul massasi, valyuta kursi, makroiqtisodiy barqarorlik, investorlar ishonchi.
**Abstract.** The theoretical foundations of inflation management methods and the investment climate are examined, and their interrelationship is scientifically analyzed. Key directions for further developing the investment climate in Uzbekistan and mitigating the adverse effects of inflation are outlined. The relationships among the inflation rate, interest rates, money supply, exchange rate, and investment flows in Uzbekistan are analyzed, and the main channels through which inflation affects the investment climate are identified. Based on international experience, approaches to improving inflation targeting, ensuring macroeconomic stability, and strengthening investor confidence in accordance with the conditions of Uzbekistan are presented.
**Keywords:** inflation, inflation targeting, investment climate, investment flows, interest rates, money supply, exchange rate, macroeconomic stability, investor confidence.
**Аннотация.** Рассмотрены теоретические основы методов управления инфляцией и понятия инвестиционного климата, а также проведён научный анализ их взаимосвязи. Определены основные направления дальнейшего развития инвестиционного климата в Узбекистане и снижения негативных последствий инфляции. Проанализирована взаимосвязь между уровнем инфляции, процентными ставками, денежной массой, валютным курсом и инвестиционными потоками в Узбекистане, а также определены основные направления влияния инфляции на инвестиционный климат. На основе зарубежного опыта представлены пути совершенствования инфляционного таргетирования, обеспечения макроэкономической стабильности и повышения доверия инвесторов с учётом условий Узбекистана.
**Ключевые слова:** инфляция, инфляционное таргетирование, инвестиционный климат, инвестиционные потоки, процентные ставки, денежная масса, валютный курс, макроэкономическая стабильность, доверие инвесторов.

## KIRISH

Global iqtisodiyotdagi noaniqliklar va narx-navoning keskin tebranishlari kapital bozorlari va investitsiya loyihalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inflyatsiyani tartibga solish mexanizmlarini to‘g‘ri tanlash iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va investorlar ishonchini oqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston sharoitida inflyatsiyani boshqarish masalasi pul-kredit siyosatini takomillashtirish, inflyatsion targetlash rejimiga o‘tish, narxlar barqarorligini ta’minlash va investitsiyaviy muhitni yaxshilash bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5877-son[1] Farmoni mamlakatda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish va pul-kredit siyosatini zamonaviy mexanizmlar asosida yuritish uchun institutsional asos yaratdi. Markaziy bank materiallarida narxlar barqarorligini ta’minlash va inflyatsion kutilmalarni pasaytirish pul-kredit siyosatining ustuvor maqsadi sifatida belgilanadi.[2]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonning investitsiyaviy muhiti 2017-yildan boshlab sezilarli darajada yaxshilanib kelmoqda. Besh yil ichida mamlakat investitsiya qonunchiligi tubdan qayta ishlandi: O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son[3] Qonun, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-son[4] Qonun, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son[5] Qonun esa 2020-yilda qabul qilindi. Investitsiyaviy muhit sifatini yanada oshirish va inflyatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo‘limda investitsiyaviy muhitni rivojlantirishning nazariy asoslari, inflyatsiyaning investitsiyalarga ta’sir kanallari, ushbu ta’sirni yumshatishning aniq yo‘nalishlari va chora-tadbirlari, sektorlar bo‘yicha strategiyalar, xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar batafsil ishlab chiqiladi.

Inflyatsiyaning yuqoriligi Markaziy bankning asosiy stavkani yuqori darajada — 14 foizda saqlashini taqozo etadi, bu esa tijorat banklari kreditlarining 20–28 foiz stavkada berilishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, KO‘B va startaplar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur holatni yaxshilash yo‘nalishi sifatida inflyatsiyaning 5 foizga tushishi asosiy stavkaning 10–11 foizga pasayishiga imkon beradi, bu esa kredit stavkalarini 14–18 foizgacha tushirishga xizmat qiladi. Qo‘shimcha ravishda, KO‘B uchun kredit kafolat jamg‘armalari, risklarni taqsimlash dasturlari va xorijiy moliya institutlari bilan imtiyozli kreditlash dasturlari investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Intellektual mulk huquqlari himoyasining kuchaytirilishi. 2024-yilda O‘zbekiston AQSh savdo vakilining 301-maxsus kuzatuv ro‘yxatidan chiqarildi — bu intellektual mulk himoyasi sohasidagi yutuqlarning tan olinishidir. 2025-yil mart oyiga kelib, patent arizalari bo‘yicha ortiqcha kutish muddati mavjud emas edi. Shu bilan birga, huquqlarni amalda ta’minlash (enforcement) mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Adliya vazirligi savdo sirlarini himoya qilish bo‘yicha siyosatni ishlab chiqmoqda. IT sektorida mualliflik huquqlari nazoratini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval
Huquqiy va institutsional muhitni takomillashtirish chora-tadbirlari[6]

| Chora-tadbir | **Muddat** | **Hozirgi holat** | **OECD tavsiyasi** | **Kutilayotgan natija** |
|---|---|---|---|---|
| Qonunchilik barqarorligini oshirish | 2026–2028 | Takomillashtirish jarayoni davom etmoqda | RIA joriy etish, o‘zgarishlar chastotasini kamaytirish | Investorlar ishonchi oshadi |
| Salbiy ro‘yxat tuzish | 2026 | Cheklovlarni yanada aniqlashtirish zarur | Shaffof negative list | TXI cheklovlari aniq bo‘ladi |
| Nizolarni hal qilishni kuchaytirish | 2026–2027 | Ombudsman mavjud | Xalqaro arbitraj samaradorligini oshirish | Huquqiy himoya ishonchliligi oshadi |

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5877-son Farmoni. Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida. — 2019-yil 18-noyabr
2 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati maqsadi va tamoyillari. — Toshkent.
3 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonun: https://lex.uz/docs/-4664142
4 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-son Qonun: https://lex.uz/ru/docs/-4329270
5 O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son Qonun: https://lex.uz/ru/docs/-4737511
6 *Manba: OECD yo‘l xaritasi va AQSh ICS 2025 tavsiyalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| IP himoyasini kuchaytirish | 2026–2028 | 301-ro‘yxatdan chiqarilgan | Amalga oshirish mexanizmlarini kuchaytirish | Innovatsion investitsiyalar oshadi |
| Yangi investitsiya qonuni | 2026 | Loyiha ishlab chiqilmoqda | Atrof-muhit talablarini saqlash | Zamonaviy huquqiy baza |
| Tadbirkorlik kodeksi | 2026–2027 | Ishlab chiqilmoqda | Raqobat va biznes muhitini yaxshilash | Biznes yuritish osonlashadi |

Inflyatsiyaning investitsiyalarga salbiy ta’sirlarini kamaytirish borasida hukumatning kelajakdagi rejalari bo‘yicha tegishli ishlar ko‘zda tutilgan.

Raqamli iqtisodiyot va IT. IT va aloqa sektori 2025-yilda 22,7 foizga o‘sdi — bu barcha sektorlar orasidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir [5]. “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi raqamli transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. OECD investitsiya strategiyasiga raqamlashtirish ustuvorliklarini integratsiya qilishni tavsiya etdi. IT sektori inflyatsiyaga nisbatan kam sezgir sektor bo‘lib, asosan xizmatlar eksportiga yo‘naltirilgan va global narxlarda faoliyat yuritadi.

1-jadval
Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish yo‘nalishlari[7]

| Yo‘nalish | Muddat | Hozirgi holat | Maqsad | Kutilayotgan ta’sir |
|---|---|---|---|---|
| Fond birjasini rivojlantirish | 2026–2030 | Faollikni oshirish imkoniyatlari mavjud | Listing va IPOlarni ko‘paytirish | Kapital jalb qilish kanalini kengaytirish |
| Korporativ obligatsiyalar | 2026–2028 | Rivojlantirish bosqichida | Bozor yaratish | Uzoq muddatli moliyalashtirish |
| Valyuta derivativlari | 2026–2028 | Rivojlantirish imkoniyatlari mavjud | Forvard, fyuchers | Valyuta riskini boshqarish |
| Fintech va mikrofinans | 2026–2028 | Jadal rivojlanmoqda | Tartibga solish, kengaytirish | KO‘B investitsiyalari oshadi |
| Yashil moliya | 2026–2030 | Boshlang‘ich rivojlanish bosqichida | Yashil obligatsiyalar, ESG | Iqlim investitsiyalari |
| Pensiya jamg‘armalari | 2027–2030 | Rivojlantirish bosqichida | Institutsional investorlar | Uzoq muddatli kapital |

“Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasida barcha sohalarni raqamlashtirishga erishish ko‘zda tutilgan.

Turizm va xizmatlar sektori. 2025-yil may oyida Prezident turizm oqimini keskin oshirish va turistik xizmatlarni kengaytirish to‘g‘risida maxsus farmon chiqardi. Turizm sektori valyuta tushumlarini diversifikatsiya qilish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi tarixiy shaharlar xalqaro turizm uchun katta salohiyatga ega.

**Investitsiyaviy muhitni rivojlantirish: asosiy yo‘nalishlar**

Investitsiyaviy muhitni rivojlantirish — iqtisodiyotning o‘sishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va turli sohalarda innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishdir. Bunga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhimdir:

**a) Huquqiy va tartibga solish tizimini yaxshilash**

Investitsiyalarni jalb qilishda huquqiy tizimning barqarorligi va tushunarli bo‘lishi katta rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda investitsiyaviy muhitni yaxshilash uchun quyidagi qadamlar muhim:

**Huquqiy xavfsizlikni ta’minlash:** investitsiyalarni himoya qilish va ularga nisbatan ishonchni mustahkamlash uchun yangi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarur. Masalan,

7 *Manba: OECD, Jahon banki va muallif tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.*

investitsiyalarni himoya qilish bo'yicha xalqaro bitimlar, soliq imtiyozlari va preferensiyalarni kengaytirish, shuningdek, biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish muhim.

**Sud tizimi va mulk huquqlarini himoya qilish:** investorlarga mulk huquqlarining daxlsizligini ta'minlash, mulkni musodara qilish yoki qayta tiklash bilan bog'liq holatlarda kuchli qonuniy himoya yaratish investitsiyalarning xavfsizligini oshiradi.

**b) Soliq siyosatini soddalashtirish**

Investitsiyalarni rag'batlantirish uchun soliq tizimi samarali bo'lishi kerak. O'zbekistonda soliq islohotlarini davom ettirish orqali investitsiyaviy muhitni yaxshilash uchun quyidagi qadamlar muhimdir:

**Soliq stavkalarini maqbullashtirish:** soliq stavkalarini maqbullashtirish tadbirkorlar va investorlar faoliyati uchun qulay sharoitlarni yanada kengaytiradi. Shuning uchun soliq imtiyozlari va soliq stavkalarini maqbullashtirish orqali investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish muhim.

**c) Infratuzilmani rivojlantirish**

Investitsiyaviy muhitning rivojlanishida infratuzilma, xususan, transport, energetika, telekommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimlarining barqarorligi muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

**Transport tarmog'ini rivojlantirish:** yo'l, temir yo'l va aeroportlar kabi transport infratuzilmasini yaxshilash orqali tovarlar va xizmatlar harakatini tezlashtirish hamda iqtisodiy integratsiyani ta'minlash mumkin.

**Energiyani samarali boshqarish:** energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish va energiya samaradorligini oshirish orqali barqaror energetika tizimiga ega bo'lish muhim.

Investitsiyaviy muhitning hududiy tafovutlarini kamaytirish O'zbekistonda muhim yo'nalishlardan biridir. Strategik islohotlar agentligi O'zbekistonning 14 ta mintaqasidagi investitsiya muhitini baholash va davlat muassasalari biznes muhiti bilan bog'liq masalalarni qanday hal qilayotganini aniqlash uchun metodologiya ishlab chiqdi. Bu muhim qadam bo'lib, mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni yanada qisqartirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Hududiy investitsiyaviy muhitni yaxshilash uchun quyidagi tavsiyalar beriladi. Birinchidan, mintaqaviy investitsiyalarni rag'batlantirish markazlari va xizmatlarini kengaytirish — har bir viloyatda investorlarga "yagona darcha" xizmatlarini ta'minlash. Ikkinchidan, kichik sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini samarali tashkil etish — 750 dan ortiq kichik sanoat zonasi va 24 ta EIZ mavjud bo'lib, ularning bandligi va samaradorligini hududlar bo'yicha yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Uchinchidan, mintaqaviy logistika va transport infratuzilmasini rivojlantirish. To'rtinchidan, hududiy energiya ta'minotini yaxshilash va mintaqalarda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshirish.

Hududiy investitsiyaviy muhitning inflyatsiya bilan bog'liqligi ham e'tiborga olinishi lozim. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori inflyatsiya Qoraqalpog'iston va Farg'ona viloyatlarida — 7,7 foiz, eng past ko'rsatkich esa Jizzax viloyatida — 6,7 foiz qayd etilgan.

Hukumatning 2030-yilga kelib YAIMni 200 milliard dollarga yetkazish maqsadi yuqori istiqbolli maqsad bo'lib, unga erishish imkoniyatlari mavjud. YeTTB 2026-yil uchun YAIM o'sish prognozini 6,5 foizga oshirdi, 2025-yilda iqtisodiyot 7,7 foizga o'sdi, nominal YAIM 147 milliard dollarga yetdi. Agar inflyatsiya 5 foizga tushirilsa, TXI oqimi yiliga 4–5 milliard dollarga oshsa va tarkibiy islohotlar davom ettirilsa, 2030-yilda 200 milliard dollarlik maqsadga erishish real hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta O'zbekiston kontekstida investitsiyaviy muhitni rivojlantirish chora-tadbirlari inflyatsiyani boshqarish siyosati bilan yaxlit tizimda — nazariy jihatdan asoslangan (Porter, Nort, Rodrik, Dunning, Fischer), empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan va xalqaro tajriba (OECD yo'l xaritasi–2025, XVF IV-modda–2025, AQSh ICS–2025) tavsiyalari bilan boyitilgan holda ishlab chiqilgan. Sektorlar bo'yicha maqsadli investitsiya strategiyalari, hududiy klaster yondashuvlari va KO'B uchun inflyatsiyaning salbiy ta'sirini yumshatish dasturlari ham tadqiqotning o'ziga xos hissasi hisoblanadi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati, hukumatning investitsiya siyosati hamda OECD yo'l xaritasi tavsiyalarini amalga oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qiladigan bo'lsak, keyingi bosqichda investitsiyaviy muhitning sifatini baholash uchun kompozit indeks ishlab chiqilishi, hududlar bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili o'tkazilishi va investorlar so'rovnomasi asosida investitsiyaviy muhitning amaliy masalalari chuqurroq o'rganilishi maqsad qilingan. Bu kelajakdagi tadqiqotlarda siyosat uchun yanada aniq va maqsadli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘RQ-582-son Qonuni: https://lex.uz/acts/-72266
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-4581969
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-son Qonuni: https://lex.uz/uz/docs/-4664142
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida” PF–5877-son Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-4600824
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
7. Keynes J. M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi (The General Theory of Employment, Interest and Money). — London: Macmillan, 1936.
8. Friedman M. Pulning noto‘g‘ri boshqarilishi: inflyatsiya epizodlari (Money Mischief: Episodes in Monetary History). — New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1992.
9. G‘ulomov S. S., Alimov R. X. Investitsiya faoliyati va investitsion muhit. — Toshkent: Fan, 2017.
10. Qosimova G. A. Investitsiyalarni boshqarish. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
11. Karimov N. G. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
12. Tursunov B. O. Makroiqtisodiy barqarorlik va investitsiyaviy muhitni rivojlantirish masalalari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
13. Jahon iqtisodiy forumi rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. — World Economic Forum.
14. Trading Economics iqtisodiy-statistik portali [Elektron resurs]. — Trading Economics.
15. The Global Economy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bazasi [Elektron resurs]. — The Global Economy.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 9/2**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz